

SLANG AND INTERNET JARGONS IN YOUTH SPEECH

Abdusamadova Mohinur,
Uzbek State University of World Languages
3rd year student of Foreign Language and Literature: English
E-mail: abdusamadovamohi05@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20353055>

YOSHLAR NUTQIDA SLANG VA INTERNET JARGONLARI

Abdusamadova Mohinur,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Xorijiy til va adabiyot: ingliz tili 3-kurs talabasi
E-mail: abdusamadovamohi05@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlar nutqida slang va internet jargonlarining paydo bo'lishi, rivojlanishi hamda ularning tilga ta'siri tahlil qilinadi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali kirib kelayotgan yangi so'zlar yoshlar muloqot uslubini o'zgartirib yubormoqda. Tadqiqotda slang so'zlarning ijobiy va salbiy jihatlari ko'rib chiqiladi hamda ularning nutq madaniyatiga ta'siri haqida so'z yuritiladi. Maqola yakunida esa til me'yorlarini saqlash va internet jargonlaridan foydalanishda aqlni ishlatish muhimligi haqida xulosalar beriladi.

Kalit so'zlar: slang, internet jargonlari, yoshlar nutqi, muloqot, til madaniyati, ijtimoiy tarmoqlar.

Annotation: This article analyzes the emergence, development, and influence of slang and internet jargon in youth speech. New words entering through the internet and social media are changing the communication style of young people. The study examines both the positive and negative aspects of slang words and discusses their impact on speech culture. In conclusion, the article emphasizes the importance of maintaining language standards and using internet jargon wisely and consciously.

Keywords: slang, internet jargon, youth speech, communication, language culture, social media.

Аннотация: В данной статье анализируется появление, развитие и влияние сленга и интернет-жаргона в речи молодежи. Новые слова, приходящие через интернет и социальные сети, изменяют стиль общения молодых людей. В исследовании рассматриваются как положительные, так и отрицательные стороны сленговых выражений, а также их влияние на культуру речи. В заключении подчеркивается важность сохранения языковых норм и разумного использования интернет-жаргона.

Ключевые слова: сленг, интернет-жаргон, молодежная речь, общение, культура речи, социальные сети.

Bugungi raqamli dunyoda yoshlarni ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur qilish bu aqlga sig'mas holat ekanligiga yetib keldik. Masalan, Telegram, TikTok, Instagram kabi platformalar muloqotning asosiy vositalari hisoblanadi. Yoshlar kun davomida ushbu platformalarda faol muloqot qiladi, postlar joylaydi, izohlar qoldiradi va turli kontentlar tomosha qilishadi. Natijada ular o'zaro tezkor va qisqa aloqa o'rnatadi. Bu jarayon esa tilning tabiiy o'zgarishiga ta'sir ko'rsatib, yangi so'zlar va iboralar paydo bo'lishiga olib keladi. Ayniqsa, slang va internet jargonlari kundalik hayotga tez kirib kelib, an'anaviy til me'yorlarini qisman o'zgartirmoqda. Slang va jargonlar odatda rasmiy til qoidalariga to'liq mos kelmaydi, biroq ular yoshlar orasida tez tushuniladi va keng tarqaladigan kommunikativ vosita sifatida xizmat qiladi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – yoshlar nutqida keng tarqalib borayotgan slang va internet jargonlarining kelib chiqish sabablari, ularning rivojlanish jarayoni hamda tilga ko'rsatadigan ta'sirini tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, maqolada ushbu leksik birliklarning yoshlar muloqot madaniyatidagi o'rni, ularning ijobiy va salbiy jihatlari ilmiy asosda yoritiladi. Bundan tashqari, til me'yorlarini saqlash zarurati va internet jargonlaridan foydalanishda ongli yondashuvni shakllantirish masalasi ham asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Mazkur mavzu bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida nihoyatda dolzarb va jiddiy hisoblanadi. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi natijasida yoshlar nutqiga turli xil xorijiy so'zlar, slang va jargonlar tez sur'atlarda kirib kelmoqda. Bu jarayon bir tomondan muloqotni osonlashtirsa, ikkinchi tomondan milliy til me'yorlariga, adabiy tilning sofligiga va nutq madaniyatiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Slang – bu ma'lum bir ijtimoiy guruh yoki yoshlar jamoasi tomonidan ishlatiladigan norasmiy so'z va iboralar yig'indisidir. Language is a constantly evolving system, and its development naturally includes informal elements such as slang, which emerge as part of social interaction and gradually become integrated into everyday communication. Such changes are not signs of language decay but rather evidence of its continuous adaptation and growth. (Jean Aitchison, *Language Change: Progress or Decay*, 2012). Aitchison ushbu fikri bilan tilshunoslikda juda muhim qarashni ifodalaydi: til statik emas, balki dinamik tizimdir. Ya'ni til vaqt o'tishi bilan jamiyat, madaniyat va texnologiyalar ta'sirida doimiy o'zgarib boradi. Slang va boshqa norasmiy birliklar ko'pincha yoshlar yoki ma'lum ijtimoiy guruhlar orasida paydo bo'ladi. Dastlab ular rasmiy til me'yorlariga kirmasa ham, vaqt o'tishi bilan keng tarqalib, umumiy nutqqa singib ketishi mumkin.

Internet jargonlari esa asosan ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va onlayn o'yinlar orqali paydo bo'ladi. Masalan, "lol", "brb", "omg", "cringe" kabi so'zlar ingliz tilidan kirib kelib, global internet madaniyatining bir qismiga aylangan. O'zbek yoshlar nutqida ham "ok", "like bos", "seen qil" kabi aralash shakllar keng tarqalmoqda. Slang va jargonlarning rivojlanishi bir nechta omillar kuchli ta'sir qiladi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi, global internet madaniyati, yoshlar orasida tezkor va qisqa muloqotga ehtoyoq, media va blogerlar ta'siri bo'lishi mumkin. Ayniqsa, Telegram, Instagram va TikTok kabilar yangi so'zlarning tez ommalashishiga sabab bo'moqda.

Slang va jargonlar yoshlar nutqida hissiy holatni tez yetkazish, qisqa yozish va zamonaviylik hissini berishda muhim ro'l o'ynaydi. Biroq, bu jarayonning salbiy tomoni ham mavjud. Ular adabiy til me'yorlarining buzilishi, rasmiy nutqda qiyinchiliklar, so'z boyligining cheklanishi, til madaniyatining pasayish xavfi kabi salbiy tomonlari bo'lgan bir paytda tez va qulay muloqot, yoshlar o'rtasida ijtimoiy bog'liqlik, zamonaviy kommunikatsiyaga moslashuv kabi ijobiy jihatlarni ham ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, slang va internet jargonlari zamonaviy yoshlar nutqining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ular muloqotni osonlashtirsa-da, adabiy til me'yorlarini saqlash masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu sababli, yoshlar internet jargonlaridan foydalanishda ongli yondashishi, rasmiy va norasmiy nutqni ajrata olishi muhimdir. Til madaniyatini saqlash va rivojlantirish har bir jamiyat a'zosining vazifasidir. Shu bilan birga, zamonaviy kommunikatsiya vositalaridan to'g'ri va me'yoriy foydalanish ham katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

1. Aitchison, J. (2012). *Language Change: Progress or Decay?* Cambridge University Press.
2. Baron, N.S. (2008). *Always On: Language in an Online and Mobile World*. Oxford University Press.
3. Crystal, D. (2006). *Language and the Internet*. Cambridge University Press.
4. Herring, S.C. (2013). *Discourse in Web 2.0: Familiar, Reconfigured, and Emergent*. Indiana University Press.